

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

III Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 3-SON

2025-YIL



ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-8337-3-1

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Babajanova Mexribonjon

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH 4-6

Ismailova Zumrad, Anarbaev Anvar, Vaxidov Umid

ISSIQXONADA HAVOSINI BUG'LATIB SOVUTISH TIZIMI UCHUN SHAMOLLITGICH QURILMANING RATSIONAL ELEKTR PARAMETRLARINI ANIQLASH 7-12

TARIX FANLARI

Narzullayeva Zulxumor

SALJUQIY HUKMDORLARNING MAMLAKATDAGI ZIYOLILAR QATLAMIGA VA TA'LIMGA KO'RSATGAN E'TIBORI 13-16

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Dilorom

DARIY TILI GAZETA MATNLARIDAGI HOKIMIYAT ORGANLARI VA ULARNING FAOLIYATI BILAN BILAN BOG'LIQ SIYOSIY EVFEMIZMLAR 17-19

YURIDIK FANLAR

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI MAKONDA BOLALARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA "XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT" TAMOIYILINING AMALIY IFODASI 20-25

Maxmudova Hurmatxon

FUQAROLARNING YURIDIK YORDAM OLIISH HUQUQI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI 26-30

PEDAGOGIKA FANLARI

Xakimov Tulanboy

TARIX O'QITUVCHISINING NUTQ MADANIYATI VA HIKOYALASH MAHORATI — NARRATIV YONDASHUVNING ASOSI 31-33

Pulatova Lobar

LINGUOCULTUROLOGY AND MEDIA TEXT: THEIR INTERRELATION 34-37

SIYOSIY FANLAR

Umarova Nilufar

STRATEGIC RESILIENCE AND REGIONAL LEADERSHIP: UZBEKISTAN'S PATH THROUGH THE FOURTH INDUSTRIAL REVOLUTION 38-41

FILOLOGIYA FANLARI

DARIY TILI GAZETA MATNLARIDAGI HOKIMIYAT ORGANLARI VA ULARNING FAOLIYATI BILAN BILAN BOG'LIQ SIYOSIY EVFEMIZMLAR

Begmatova Dilorom A'zamxon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Alimova Xolida Zikrillayevna

Filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eron-afg'on filologiyasi kafedrası

Annotatsiya. Ushbu maqolada dariy tili gazeta matnlardagi hokimiyat organlari va ularning faoliyati bilan bog'liq siyosiy evfemizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: siyosiy evfemizmlar, hokimiyat bilan bog'liq siyosiy evfemizmlar.

POLITICAL EUPHEMISMS RELATED TO GOVERNMENT BODIES AND THEIR ACTIVITIES IN THE TEXTS OF DARI LANGUAGE NEWSPAPERS

Begmatova Dilorom Azamkhanovna

Master's student of Tashkent State University of Oriental Studies

Scientific supervisor: Alimova Khalida Zikrilayevna

Doctor of Philology (DSc), professor

Tashkent State University of Oriental Studies Department of Iranian-Afghan Philology

Annotation. This article analyzes political euphemisms related to authorities and their activities in Dari language newspaper texts.

Key words: political euphemisms, political euphemisms related to power.

Dariy tilidagi "Anis" va "Hivod" gazetalarining 2020-2024-yil sonlaridagi ijtimoiy-siyosiy matnlar tahlili asosida hokimiyat organlari va ularning faoliyati bilan bog'liq quyidagi siyosiy evfemistik birliklar ajratildi:

دولت در اجرای وعده هایش کوتاهی کرده است [6].

Dawlat dar ejrâ-ye wadahnyaš kôtâhi karda ast.

"Davlat o'z va'dalarini bajarishda qo'li kaltalik qilmoqda".

Jumlada *davlat o'z va'dalarini bajarmayapti* deyilmasdan, balki *kôtâhi* "qisqalik", "kaltalik" so'zidan foydalanib vaziyatni yumshatishga erishilgan. Bu esa o'z-o'zidan davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy hal etish uchun xizmat qilmoqda.

ایالات متحده از تحویل یک کاروان متشکل از ۲۰ کامیون حامل کمک‌های بشردوستانه به شدت مورد نیاز به مردم غزه

استقبال می‌کند.

Ayâlât-e mottaheda az tahwil-e yak kârwân-e motaşakkel az bist kâmyôn homel-e komakhâ-ye bašardôstâna ba šeddat mowred-e neyâz ba mardom ġezâ esteqbâl mê konad.

"Qo'shma Shtatlar G'azo xalqiga juda zarur bo'lgan insonparvarlik yordamini olib ketayotgan 20 ta yuk mashinasidan iborat karvon yetkazib berilishini olqishlaydi".

Ushbu gapda *komakhâ-ye bašardôstâna*, ya'ni "insonparvarlik yordami" so'z birikmasidan siyosiy evfemizm sifatida qo'llanilgan bo'lib, uni hokimiyat organlari faoliyatiga kiritdik. Bunga sabab qilib esa uning bevosita hokimiyatlararo siyosiy faoliyat bilan bog'liqligini ko'rsatishimiz mumkin.

سازمان ملل: پاکسازی قومی مسلمانان روہینگیا در میانمار ادامه دارد.

Sâzmân-e Melal: pâksâzi-ye qawmi-ye mosalmânân-e ruhingyâ dar Myânâmâr edâma dârad.

"Birlashgan Millatlar Tashkiloti: Miyanmada rohinja musulmonlariga qarshi etnik tozalov davom etmoqda".

Keltirilgan jumlada *pâksâzi-ye qawmi* "etnik tozalov" iborasi salbiy ottenkaga ega bo'lgan siyosiy vaziyatni g'iloflash uchun xizmat qilmoqda. Zero, gapning asl mazmuni bir qavmning qirg'in qilinishi to'g'risida ketmoqda.

استراتژی‌های تجدید ساختاری که شرکت‌ها انتخاب می‌کنند در بیرون آمدن از درماندگی مالی بسیار حائز اهمیت است. شرکتها تلاش می‌کنند با انتخاب بهترین استراتژی، از وضعیت بحران خارج شده و به حیات خود ادامه دهند.

Estrâtêzihâ-ye tajdid-e sâxtâri ke šerkathâ entexâb mêkonand dar bêrun âmadan az darmândagi-ye mâli-ye besyâr hâ'ez-e ahamiyat ast, šerkathâ talâš mêkonand bâ entexâb-e behtarin estrâteji, az waz'iyat-e bohrân xârej šoda wa ba hayât-e xôd edâma dehand.

"Kompaniyalar tanlagan qayta qurish strategiyalari moliyaviy tanglikdan chiqishda juda muhimdir. Kompaniyalar inqirozli vaziyatdan chiqishga va eng yaxshi strategiyani tanlash orqali o'z mavjudligini davom ettirishga harakat qiladilar".

Ushbu misol orqali *tajdid-e sâxtâr* "qayta qurish", ya'ni "tarkibni yangilash" iborasi ostida ishchilarni ishdan bo'shatish haqidagi salbiy ottenka ma'lum miqdorda g'iloqlangan.

امروز دیگر کمتر تردیدی باقی‌مانده است که گروه‌های فشار در ایران و آمریکا، یکی از عوامل اصلی عدم از

سرگیری روابط میان دو طرف است [8].

Emrôz digar kamtar tardidi bâqi mânda ast ke gorôh hâ-ye Irân wa Âmrikâ, yaki az awâmel-e asli-ye adam az sargiri-ye rawâbet meyân-e dô taraf ast.

"Bugun Eron va Amerikadagi bosim guruhleri ikki tomon o'rtasidagi munosabatlarni tiklamaslikning asosiy omillaridan biri ekanligiga shubha yo'q".

Jumlada *gorôhhâ-ye fešâr* "bosim guruhleri" so'z birikmasi siyosiy evfemizm vazifasini bajarmoqda. Ushbu so'z birikmasiga internet manbalarida quyidagicha ta'rif berilmoqda:

Bosim guruhi davlat siyosati jarayoniga ta'sir o'tkazishga harakat qilayotgan manfaatdor guruhleri anglatadi. Hukumat ustidan rasmiy nazoratni qo'lga kiritishga urinmasdan siyosatchilar, ma'murlar va qonun chiqaruvchilarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishga intiladigan har qanday ijtimoiy guruh *bosim guruhi* deb ataladi. Siyosiy partiyalardan farqli o'laroq, bu guruhlar hokimiyatni qo'lga kiritish uchun emas, balki hokimiyat qarorlariga ta'sir o'tkazishga intiladi.

Bosim guruhleri ikki turga bo'linadi, ichki va tashqi. Ichki bosim guruhleri ixtisoslashgan va professional guruhlar bo'lib, ular hukumat va siyosatchilar tomonidan guruhning ekspertizasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha muntazam maslahatlashib turadilar, biroq tashqi bosim guruhleri hukumat bilan alohida aloqaga ega bo'lmagan guruhlardir va ular asosan jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalariga ta'sir qilish orqali davlat siyosatiga ta'sir o'tkazishga intiladi [7].

Qisqacha qilib aytganda, ushbu guruhlarining vazifasi ommani manipulyatsiya qilishdan iborat. Bu esa "bosim guruhlar" birikmasining siyosiy evfemizmlarning to'laqonli a'zosi ekanligini isbotlaydi. Ularning faoliyati hokimiyat organlari va jamiyat bilan bog'liqligi esa ularning shu guruhga mansubligini belgilab beradi.

نقش کار د های مسلکی در بهبود وضعیت اقتصادی

Naqsh-e kâdrhâ-ye maslaki dar behbud-e waz'iyat-e eqtesâdi

"Iqtisodiy vaziyatni yaxshilashda professional kadrlarning o'rni".

Ushbu matn sarlavhasidagi *waz'iyat-e eqtesâdi* "iqtisodiy vaziyat" so'z birikmasi matnning salbiy mazmunini g'iloflash uchun qo'llanilgan. Matnning mazmunini quyidagi jumla bilan ifoda etishni joiz deb bildik:

در شرایط کنونی که وضعیت زندگی باشندگان این سرزمین یک سلسله مشکلات خود را دارد نرخ بیکاری خیلی ها بلند

است [6].

Dar šarâyet-e konuni ke waz'eyat-e zendagi-ye bâšendagân-e in sarzamin yak selsela-ye moškelât-e xôd râ dârad nerx-e bêkâri xeyli boland ast.

"Bu zamin aholisining turmush sharoiti qator muammolarga duch kelayotgan hozirgi sharoitda ishsizlik darajasi ham juda yuqori".

Jumladagi *nerx-e bêkâri* "ishsizlik darajasi" matnning bosh mavzusi hisoblanib, salbiy xarakterga ega hisoblanadi. Shu salbiy ottenkani yumshatish maqsadida yuqoridagi siyosiy evfemizmdan foydalanilgan. Ushbu evfemizm bir qarashda iqtisodiy sohaga oid siyosiy evfemizmdan tuyulsa-da, bu bevosita davlat siyosati va hokimiyat organlari faoliyati bilan bog'liq.

Demak aytish joizki, siyosiy evfemizmlar hokimiyat organlari va ularning faoliyatida noxush xabarlarini yumshatish, salbiy bahoga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki qabul qiluvchining his-tuyg'ularini ranjitadigan har qanday narsani to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishdan qochish, salbiy tomonlarini yashirish uchun foydalaniladi [1:97].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Волфсон И.В. Язык политики. Политика языка. – Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 2003. – 125 с.
2. Зелинский С.А. Манипуляции сознанием [Электронный ресурс] // <http://псифастор.орг/либ/злн8.хтм>. – 2003. – № 1. – С. 75-87.
3. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. – М.: Эксмо, 2006. – 832 с.
4. Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русистика. – Берлин, 1994, 1-2. – С. 28-49.
5. Москвин В. П. Эвфемизмы: системные связи, функции и способы образования // Вопросы языкознания. – М., 2001. – № 3. – С. 58-70.
6. <https://anisdaily.com/>
7. <https://iranthinktanks.com/pressure-group/>
8. <https://learning.emofid.com/meaning-and-types-of-investment/>

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 1-jild, 3-son (noyabr, 2025-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-noyabr

ISBN-978-9910-8337-3-1

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.